

KELAJAK O'Z QO'LIMIZDA

Yoshlik – bu g'oya, shijoat va harakat demakdir! Bugun oliy ta'lim maskanlarida bilim olayotgan talabalar ertaga mamlakatimiz taraqqiyotini yangi bosqichga olib chiquvchi yetakchi kuchga aylanadi.

O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosati har bir intiluvchan yigit-qiz uchun keng imkoniyatlar eshigini ochmoqda. Xo'sh, bu imkoniyatlardan unumli foy-



dalanish uchun nimalarga e'tibor qaratish lozim?

Bugungi oliy ta'lim tizimi faqat diplom olish emas, balki keng va tahliliy fikrlash, amaliy ko'nikma hosil qilish makonidir.

Talabalarning mamlakatimiz va xorijda chuqur ilm olishlari uchun ishlab chiqilgan loyihalarda faol ishtirok etishlari istiqbollari belgilash uchun imkon yaratadi.

Dasturlash, grafik dizayn, raqamli marketing va sun'iy intellekt, raqamli texnologiyalar yo'nalishlari mehnat bozorida yetakchilik qilmoqda. Internetdan unumli foydalanib, kuniga 1-2 soatni malaka oshirishga sarflash yetuk mutaxassis bo'lishning kalitidir.

Kelajak buniyodkori jismonan baquvvat, ma'nan boy bo'lishi zarur. Sport irodani toblasa, kitob mutolaasi dunyoqarashni kengaytiradi. Bu imkoniyatlardan oqilona foydalanish kelajagimiz uchun muhim ahamiyat kasb etishini unutmashimiz kerak.

Nigina ATAMURATOVA,
tayyorladi



MUALLIMLARGA

*Nechog' baxtiyorman, ta'zimda shu tob
Sizning sha'ningizga bitmoqdaman bayt.
Ne odam bo'lardim, qo'limda kitob
Biror harf tanimay tursaydim loqayd.*

*Siz-ku "Alifbo"dan "Qomus" gacha to
Bari-barisini tanitgan ustoz.
Ilk bor Siz ko'rsatgan duraxshon Zuhro
Bukun she'rim ichra tashbehdir mumtoz.*

*Siz mo'jaz yurakda yoqolgan yog'du
Oqibat quyoshdek socha olur nur.
Buyuklar haqqiga qasamyod gap bu:
Sizdan boshlanadi asli Tafakkur.*

*Olamda ko'p erur muborak onlar,
Tabarruk zotlar ham garchand ko'p erur.
Sizgadir ilk rahmat, aziz insonlar,
Munis muallimlar, Sizga tashakkur.*

*Abdulla ORIPOV,
O'zbekiston xalq shoiri*

AJDODLARGA XOS BO'LISH

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonning Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi oqibatida xalqimiz boshiga og'ir kulfatlar tushdi. Zulm haddidan oshib ketdi.

Bunday sharoitda millatni ma'rifat, ilm va ziyo orqali ozodlikka olib chiqish yo'lida kurashgan ziyolilar maydonga chiqishdi. Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Fitrat kabi jadid bobolarimiz xalqni ilm olishga, zamonaviy bilimlarni egallashga, milliy ong va tafakkurni yuksaltirishga chaqirishdi. Ularning ozodlik va ma'rifat yo'lidagi fidoyiligi bugungi yoshlar uchun maktabdir. Men ana shunday buyuk ma'rifatparvarlar yashab, ijod qilgan yurtda tug'ilganimdan faxrlan-

man.

Bugungi kunda ana shu ajdodlarimiz orzu qilgan O'zbekistonda yoshlarning bilim olishi, o'z iste'dod va qobiliyatlarini namoyon etishi uchun keng imkon-



yatlar yaratilgan. Yosh avlodning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, ularning sport, san'at, kitobxonlik va zamonaviy texnologiyalarga bo'lgan qiziqishini

qo'llab-quvvatlashga qaratilgan turli loyihalar amalga oshirilmoqda.

Ayniqsa, yurtimizda qizlarning ta'lim olishi, sport va boshqa sohalarida o'z salohiyatini namoyon etishi uchun yaratilayotgan imkoniyatlar e'tirofga sazavor. Bu imkoniyatlardan oqilona foydalangan holda xalqimiz faravonligiga, mamlakatimiz taraqqiyotiga hissa qo'shish biz, yoshlar uchun ham farz, ham qarzdur.

Bizning eng katta vazifamiz ham shunda. Jadid bobolarimizning qilgan ishlaridan faxrlanibgina qolmay, ularga xoz shijoat bilan buyuk kelajakni o'z bilimimiz, mehnatimiz va fidoyiligimiz bilan barpo etish lozim.

Dildora RIZOBERDIYEVA,
Ingliz tili fakulteti 1-bosqich talabasi

YANGI RENESSANS

Muassis:
Samarqand davlat chet
tillar instituti

Muharrir v.v.b: Sardor Baxrillo o'g'li

Tahrir hay'ati: B.XOLIQOV, E.MUSURMONOV,
X.XAYRULLAYEV, U.XUSANOV, H.JO'RAYEV

Manzil: Samarqand shahri, Gagarin ko'chasi 43-uy

Gazeta Samarqand davlat chet
tillar instituti Ilmiy kengashi
qarori asosida ta'sis etilgan.
Gazeta institut talabalari
uchun mo'ljallangan.



@renessansadmin-
bot orqali bizga
murojaat qiling

Gazeta institut
"Tahrir-
nashriyot"
bo'limida chop
etiladi.

1-oktabr – O'qituvchi va murabbiylar kuni

Vatan ustuni – bilim, ta'lim va tarbiyada!

YANGI RENESSANS

IJTIMOIY-TA'LIMIIY, MADANIY-MA'RIFIY GAZETA

2026-yil, 29-sentabr, № 9

www.samdhti.uz

E-mail: intellektinfo@inbox

2025-yildan chiqa boshlagan



YANGI O'ZBEKISTON ME'MORLARI

Har bir inson hayotida erishgan ilk muvaffaqiyati, qalbini shadek yoritgan ezgu maqsadi ortida, shubhasiz, ustozlarning mashaqqatli mehnati va oftobdek mehri turadi. Bugun Uchinchi Renessans poydevorini mustahkam qurayotgan Yangi O'zbekiston yoshlari o'zining yorug' kelajagi sari ildamlayotgan davrda ustoz va murabbiylarning o'rni yuksakdir.

Uchinchi Renessans – bu, eng avvalo, ma'rifat, ilmfan va yuksak tafakkur renessansidir. Ushbu ulug'vor maqsad yo'lida yoshlarga zamonaviy bilim berayotgan, ularning dilida vatanparvarlik va ilmga bo'lgan ishtiyoqni alangalatayotgan fidoiy ustozlarimiz Yangi O'zbekistonning haqiqiy me'morlaridir. Ustoz-murabbiylarning sabri, har bir talabaning iqtidori va kelajagiga bo'lgan ishonchi yoshlarga kuch hamda ilhom bag'ishlaydi.

Biz, talabalar, bilim dargohimizda yaratilgan keng imkoniyatlar va zamonaviy sharoitlardan unumli foydalanar ekanmiz, har bir yutug'imiz ortida ustozlar bergan bilim hamda o'gitlar turganini chuqur his etamiz. Ular bizga nafaqat fan asoslarini, balki hayot saboqlarini, komillik va vatanparvarlikni ham o'rgatishmoqda.

Sardor RUSTAMOV

Bugun Samarqand davlat chet tillar instituti nafaqat xorijiy tillarni o'rgatuvchi yetakchi dargoh, balki ekologik barqarorlik va zamonaviy taraqqiyot mezonlariga to'la javob beradigan xalqaro darajadagi ilm-fan maskani ekanligini yana bir bor isbotladi.

OLIYGOHIMIZ XALQARO REYTINGDA

Yaqinda e'lon qilingan nufuzli "UI GreenMetric World University Rankings 2026" xalqaro reyting natijalariga ko'ra, jonajon institutimiz dunyo bo'yicha 546-o'rinni egalladi. Quvonarlisi, mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalari orasida 13-o'rinni, Markaziy Osiyo mintaqasida esa 37-o'rinni band etib, o'z mavqeyini yanada yuqori pog'onaga ko'tardi.

Mazkur xalqaro reytingda dunyo universitetlarining ekologik barqarorligi, infratuzilma salohiyati va kampus muhiti, energiya samaradorligi va iqlim o'zgarishi, chiqindilarni boshqarish va suv resurslaridan unumli foydalanish, transport tizimi va raqamli boshqaruv, ta'lim hamda ilmiy tadqiqotlar bo'yicha amalga oshirilgan ishlar xolisona baholanadi.

Dunyoning 110 ta mamlakatidan 2016 ta oliy ta'lim muassasasi qatnashgan bunday nufuzli maydonda erishilgan ushbu natija – institutimizda professor-o'qituvchilar va talabalar uchun yaratilgan zamonaviy sharoitlar va ekologik mas'uliyatning amaldagi e'tirofidir.

Azamjon ANVAROV,
Sharq tillari fakulteti talabasi

ORZUIMG AYO'L OCHGAN DARGOH

Men Samarqand viloyatining olis Qo'shrabot tumanida tug'ilganman. Bugun Samarqand davlat chet tillar instituti talabasi degan sharaflil nomga sazovor bo'ldim. Ushbu oliygohda o'qish mendek qishloq qizi uchun ushalmas orzu edi. Ota-onamning qo'llab-quvvatlashi, ustozlarimning, o'zimning mehnatlarim o'z mevasini berdi.



Ilk dars o'tilgan kuni bosgan har bir qadamim men uchun shunchaki odim emas, balki yangi hayotning boshlanishi bo'ldi. Institutdagi zamonaviy muhit, shinam auditoriyalar va yaratilgan keng imkoniyatlar menda unutilmas

taassurot qoldirdi. Boy kutubxona, kompyuter va til laboratoriyalari, sport hamda ijodiy klublar bilim olishimiz bilan birga bo'sh vaqtimizni mazmunli o'tkazishga xizmat qilmoqda.

Bugun oldimda katta maqsadlarini qo'yganman. Men bu yerda kelajak orzularim sari dadil qadam tashladim.

Nozima ZAKIROVA,
Samarqand davlat chet tillar
institutini 1-bosqich talabasi

O‘Z YURTIMNI KASHF ETAMAN

Dunyo tamaddunining beshigi, yer yuzining sayqali deya e’tirof etilgan Samarqand o‘zining osmon bilan bo‘ylashgan moviy gumbazlari, ko‘hna obidalarini bilangina emas, asrlar qo‘ridan bizgacha yetib kelgan so‘lim va mo‘jizakor bog‘lari bilan ham mashhur. Ana shunday tarix va tabiat uyg‘unlashgan betakror maskanlardan biri “Bog‘ibaland” turizm mahallasidir.



Moziy nafasi va tabiat tarovati o‘zaro uyg‘unlashgan bu go‘shaning tarixi bevosita Sohibqiron Amir Temur nomi bilan bog‘liq. Bu muqaddas zaminning har bir qarichi buyuk saltanat asoschisi, ilm-fan va madaniyat homiysi Amir Temurning yuksak didi, bunyodkorlik salohiyati va obodonchilikka bo‘lgan e’tiboridan so‘zlaydi. Sohibqiron barpo ettirgan bog‘larning har biri o‘ziga xos tarix va jozibaga ega. Biroq Cho‘ponota tepaligi etagida qad rostlagan “Bog‘ibaland” o‘zining betakror tabiati va qadimiy an‘analari bilan alohida ajralib turadi.

“Bog‘ibaland”, jannat mevasi deya ta’riflanadigan anjirzor bog‘lari bilan dovrug‘ qozongan. Bu maskanda anjir yetishtirish an‘anasi asrlar davomida ota-bobolardan avlodlarga o‘tib, bugungi kungacha o‘z qadr-qimmatini yo‘qotmagan. Hozirda qariyb 40 gektar maydonni egallagan anjirzor hududida 72 ta oiladan iborat jamoa mehnat qilmoqda. Bahor kelib, bog‘lar yashillikka burkanganidan tortib, anjirlar pishib, dasturxonlarga fayz kirguniga qadar bu

bog‘larda mehnat qizg‘in davom etadi. “Bog‘ibaland”liklar uchun anjir shunchaki daromad manbai emas, balki hayot davomiyligini ifodalovchi qadimiy qadriyatdir. Shu bois har yili mavsum munosabati bilan bu yerda o‘tkaziladigan “Anjir sayli” tobora an‘anaviy bayram keng nishonlab kelinmoqda. Sayl davomida mahallaning mehnatkash ahli, mehmonlar va sayyohlar uchun anjirning turli navlari, milliy taomlar, urf-odat va an‘analar namoyish etiladi.

“Bog‘ibaland” ning sayyohlik tarixi ham chorak asrga yaqin davrni qamrab oladi. So‘lim tabiati, musaffo havosi, fayzli bog‘lari va eng muhimi, mehmondo‘st aholisi bu maskanga yildan-yilga ko‘proq sayyohlarni o‘ziga rom etib kelmokda. Mahallaning boy tarixiy va madaniy salohiyati e’tirof etilib, 2023-yildan boshlab “Bog‘ibaland” “Turizm mahallasi” maqomiga ega bo‘ldi.

Bugun “Bog‘ibaland” shirindan-shakar anjirlari bilan mashhur maskangina emas. Bu yerda tarix va tabiat, mehnat va an‘ana, o‘tmish va bugun bir butun manzaraga aylanadi. Bu go‘shaga qadam qo‘ygan sayyoh bir tomonda Amir Temur davridan so‘zlovchi tarix nafasini his etsa, ikkinchi tomonda ajdodlardan meros bo‘lib kelayotgan bog‘dorchilik an‘analarining bugungi davomchilariga guvoh bo‘ladi.

“Bog‘ibaland” – Samarqandning yashil xazinasi. Uni kashf etish, yurtimizning boy tarixi, betakror tabiati va mehnatkash insonlari bilan yaqindan tanishish demakdir. Zero, ona yurtini kashf etish uning buyuk obidalarini bilangina emas, ana shunday betakror go‘shalari, qa-dimiy an‘analari va samimiy insonlari orqali ham amalga oshadi.

Parvina AXROROVA,
Samarqand davlat chet tillari
instituti 1-bosqich talabasi

QISQA SATRLARDA



GIYOHVANDLIK VA NARKOJINOYATLARGA QARSHI KURASHISH — BARCHAMIZNING VAZIFAMIZ

Aholi salomatligi va millat genofondini giyohvandlik hamda narkojinoyslardan samarali himoya qilish maqsadida Samarqand davlat chet tillar institutida keng qamrovli targ‘ibot-tashviqot tadbiri tashkil etildi.

Tadbirda so‘zga chiqqan Samarqand viloyati hokimining Yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari H.To‘xtayev, Samarqand davlat chet tillar instituti rektori B.Xoliqov, Samarqand viloyati IIB Jinoyat qidiruv boshqarmasi boshlig‘ining o‘rinbosari, podpolkovnik U.G‘ulomov, Samarqand viloyati Narkologiya dispenseri shifokori G. Jalilovalar giyohvandlik va narkojinoyslarga qarshi kurashish, yoshlarni zararli illatlar ta’siridan asrash hamda ularning huquqiy va tibbiy savodxonligini oshirish masalalariga alohida to‘xtalib o‘tdilar.

Muloqot davomida mutaxassislar giyohvandlikning inson salomatligi, ruhiy holati va kelajagiga salbiy ta’siri, shuningdek, ushbu illat bilan bog‘liq jinoyatlarining huquqiy oqibatlari haqida batafsil ma’lumot berdilar.

Mashhura SHIRINBOYEVA

DAUGAVPILS UNIVERSITETI MUTAXASSISLARI OLIYGOHDA

Samarqand davlat chet tillar instituti hamda Latviyaning Daugavpils universiteti o‘rtasida muqaddam hamkorlik shartnomasi imzolangan edi.

Mazkur hujjat doirasida Daugavpils universiteti professor-o‘qituvchilari SamDChTI o‘quv jarayonlariga faol jalb etilmoqda.

Joriy yilning 21–24-sentabr kunlari ushbu universitetning 5 nafar yetakchi mutaxassisi (Marite Kravale-Paulina, Ilze Kacane, Irina Presnyakova, Ilze Olehnovica hamda Yelena Semenets) ma’ruza o‘qish va seminar-treninglar o‘tish uchun institutga tashrif buyurishdi.

Tashrif doirasida xorijlik mutaxassislar institut talabalari uchun qiziqarli ma’ruzalar o‘qishdi. Fakultet professor-o‘qituvchilari bilan tajriba almashish maqsadida davra suhbatlari tashkil etildi.

Feruza PARDABOYEVA

VATAN YURAKDAN BOSHLANADI

Tong hali to‘liq yorishmagan, qishloq ustida oppoq tuman mayin suzib yurardi. Uzoq-uzoqlardan xo‘rozlarning qichqirig‘i eshitilar, nam tuproqning o‘ziga xos hidi havoga singib ketgandi.

O‘n besh yoshli Kamron maktab sari shoshilarkan, yo‘l chetida qad rostlab turgan eski chinorga ko‘zi tushdi. U bu daraxtni esini taniganidan beri bilar-di. Qancha-qancha yozlar, qanchadan-qancha bahorlar uning shoxlari ostida o‘tgan. Bobosi hamisha shu chinorga mehr bilan qarab:

– Bu oddiy daraxt emas, bolam. Bu – qishloqning xotirasi, – derdi.

Kamron bobosining bu gaplarini ko‘p eshitgan bo‘lsa-da, uning ma’nosi haqida hech qachon jiddiy o‘ylab ko‘rmagandi.

Bir kuni ona tili darsida o‘qituvchi sinfga qarab, kutilmaganda savol berdi:

– Sizningcha, Vatanga muhabbat nimadan boshlanadi?

Sinf bir zumda jonlandi.

– Bayroqdan! – dedi kimdir.

– Harbiy xizmatdan! – dedi boshqa bir o‘quvchi.

– Vatani haqida she’rlar yozishdan! – degan javob ham yangradi.

O‘qituvchi hammani diqqat bilan tingladi. Faqat Kamron jim o‘tirardi. U derazadan tashqariga tikilib, uzoq o‘yladi.

Savol oddiydek tuyulsa-da, uning javobi Kamron uchun unchalik oson emasdi.

Vatanga muhabbat nimadan boshlanadi?

U bu savolga shoshma-shosharlik bilan javob berishni istamadi.

Ertasi kuni tongdan osmonning rangi o‘zgardi. Qalin bulutlar qishloq ustini qoplab, kuchli shamol ko‘tarildi. Kechga borib, sharros yomg‘ir yog‘di. Ariqlar toshib, ayrim ko‘chalarni suv bosdi. Shamol esa daraxtlarning shoxlarini shafqatsiz silkartdi.

Ertalab Kamron maktabga ketayotib, kechagi chinor yonidan o‘tdi-yu, bir zum to‘xtab qoldi. Qadimiy chinorning katta shoxi sinib, yerga qulab tushgan edi. Daraxt atrofida esa shamol uchirib kelgan qog‘ozlar, plastik idishlar va turli chiqindilar sochilib yotardi. Kechagi yomg‘ir hammasini yanada xunuk man-

zaraga aylantirib qo‘ygandi. Kamron soatiga qaradi. Maktabga kechikayotgan edi. Ammo nimadir uni ortga qaytardi. U sumkasini yo‘l chetiga qo‘ydi-da, singan shoxlarni bir chetga sura boshladi. Keyin daraxt atrofiga sochilib yotgan chiqindilarni birma-bir yig‘di. Qo‘llari loy bo‘ldi, oyoq kiyimlari ho‘l bo‘ldi, ammo u ishini to‘xtatmadi.

Shu payt uning yonidan o‘tayotgan do‘sti Sardor hayron bo‘lib to‘xtadi.

– Buni kim buyurdi? – deb so‘radi u.

Kamron qo‘lidagi shoxni chetga olib

boshlanadi.

Bu so‘zlar Kamronning yuragiga chuqur o‘rnashdi. Shu kundan boshlab u Vatani deganda o‘zining tor ko‘chasi, maktabi, qishlog‘i, daraxtlari, qo‘shnilari va odamlarning ertangi kunini ham tasavvur qila boshladi.

Oradan oylar o‘tdi. Bir kuni maktab o‘quvchilari tashabbusi bilan qishloqda ko‘chat ekish aksiyasi tashkil etildi. Yuzlab nihollar yerga qadab chiqildi. Bir vaqtlar qarovsiz yotgan joylarda endi yosh daraxtlar bo‘y cho‘za boshladi.

Kamron esa har bir niholga alohida mehr bilan qarardi. U ko‘chatlarni sug‘orar, atrofni yumshatar, qurib qolmasligi uchun qayg‘urardi. Go‘yo har bir nihol uning ko‘z o‘ngida kelajakning kichik bir ramziga aylanayotgandek edi.

Bir kuni u bobosi bilan yangi ekilgan daraxt ko‘chatlari yonidan o‘tib qoldi. Bobosi yosh nihollarga uzoq tikilib turdi-da, nabirasiga yuzlandi:

– Endi ayt-chi, Kamron,

Vatani sen uchun nima?

Kamron bir oz o‘ylanib qoldi. So‘ng atrofga nazar tashladi. Yashil nihollar shamolda asta tebranardi.

– Vatani – men tug‘ilgan joy, – dedi u.

– Lekin Vatanga muhabbat faqat uni sevaman, deb aytish emas. Men undan qanday narsa olayotganimdan ko‘ra, unga qanday iz qoldirishim muhim. Men undan olganimdan ko‘ra ko‘proq yaxshilik qoldirishga harakat qilishim kerak.

Bobosi mamnun jilmaydi va boshini qimirlatdi.

Uzoqda shamol yangi nihollarning barglarini shitirlatardi. Bu shitirlash Kamronga go‘yo kelajakning ovozidek eshitildi. Shu lahzada u bir haqiqatni yurakdan his qildi:

Vatani xaritada chizilgan chegaralardan ham kattaroq. U insonning qalbida yashaydi. Uni sevisha esa baland so‘zlardan emas, uni asrashdan, obod qilishdan, halol mehnat qilishdan, bilim olishdan, tabiatni e‘zozlashdan va odamlar kelajagiga befarq bo‘lmaslikdan boshlanadi.

Ruxshona O‘ROLOVA,
SamDChTI talabasi

